


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIVAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLIVAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODEL ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybullay o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODEL.....	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHIYATINI BAHOLASHNING HUDUDIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV BAHOLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	
VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	291
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
FERMENTLANGAN NO'XAT UNI VA BUG'DOY UNI ARALASHMASIDAN TAYYORLANGAN NONNING	
SIFATI VA OZIQAVIY QIYMATINI ASOSLASH.....	295
Kamolova Muxlisa, Barakayev Nusratilla	
QURILISH KORXONALARI UCHUN YASHIL STRATEGIK BOSHQARUV MODEL.....	302
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СОЛЕВОГО ПЛАСТА И КАРСТА	
ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ	310
Холбаев Бахром, Курбанов Диярбек	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI.....	314
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	



YO'L-TRANSPORT HODISALARI SODIR BO'LISHIDA HAYDOVCHINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINING TA'SIRI.....	319
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o'g'li	
QISHLOQ MAHALLALARIDA MARKAZIY ISSIQLIK TIZIMLARINI VODOROD ENERGIYA GENERATORLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK VA IQTISODIY ASOSLARI	323
Askarov Xasanjon, Jumaqulova Zulayho	
MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASI OBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA MUTAXASSISLARNI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TAYYORLASH	329
G'ulomov Sherzod Rajaboyevich	
BARBOTAJLI ABSORBER QURILMASINING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH	338
Xalilov Ismoiljon, Askarov Xasanjon	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTIONAL VA TASHKILIIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI	345
Xusanova Malohat Mingnorovna	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING.....	349
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR.....	357
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
РЕАЛИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	364
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY SHAKLLARI: NAZARIY ASOSLAR VA GENDER JIHATLARI TAHLILI.....	371
Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi	



MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY SHAKLLARI: NAZARIY ASOSLAR VA GENDER JIHATLARI TAHLILI

Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi

G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali
Mehnat iqtisodiyoti va strategik menejment kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

E-mail: sshakhzoda@yahoo.com

ORCID: 0009-0000-4452-0073

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehnat bozori transformatsiyasining zamonaviy shakllari — bandlikning beqaror ko'rinishlari, raqamli iqtisodiyot va masofaviy ish — milliy hamda xorijiy ilmiy manbalar asosida tizimlashtirilib, ularning gender jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi K.X. Abdurahmonovning **“Mehnat iqtisodiyoti”** darsligida keltirilgan bandlik shakllari tasnifini xalqaro nazariy yondashuvlar (tarkibiy transformatsiya va vazifaga asoslangan model) bilan bog'lash hamda gender tahlili uchun yaxlit nazariy asos yaratishdan iborat. Muallifning yondashuviga ko'ra, milliy iqtisodiy adabiyotdagi bandlik shakllari tasnifi xalqaro gender nazariyalari (N. Freyzer va K. Kreshou konsepsiyalari) bilan uyg'unlashtirilgandagina to'liq tahlili ahamiyat kasb etadi. Ilmiy yangilik sifatida Xalqaro Mehnat Tashkilotining “munosib mehnat” konsepsiyasidagi gender ko'rsatkichlari (Anker, 2003) ilk bor bandlikning beqaror shakllari tipologiyasi bilan yagona tizimda qo'llanilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mehnat bozori transformatsiyasining beqaror shakllari ayollar uchun bir tomondan yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishi, ikkinchi tomondan esa mehnat va oilaviy majburiyatlar uyg'unlashuvi bilan bog'liq qo'shimcha yuklamalarni yuzaga keltirishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori transformatsiyasi, beqaror bandlik, raqamli iqtisodiyot, munosib mehnat, gender tenglik, masofaviy ish, norasmiy bandlik.

Аннотация. В статье систематизированы современные формы трансформации рынка труда — нестандартная занятость, цифровая экономика и дистанционная работа — на основе отечественных и зарубежных научных источников, а также проанализированы их гендерные аспекты. Цель исследования заключается в интеграции классификации форм занятости, представленной в учебнике К.Х. Абдурахманова «Экономика труда», с международными теоретическими подходами (теория структурной трансформации и модель, основанная на задачах) для формирования единой теоретической основы гендерного анализа. Автор обосновывает, что классификация форм занятости, разработанная в национальной экономической литературе, приобретает полноценную аналитическую ценность лишь при ее объединении с международными гендерными теориями (Н. Фрейзер и К. Креншоу). Научная новизна исследования заключается в том, что гендерные показатели концепции МОТ «Достойный труд» (Anker, 2003) впервые применены в единой системе с типологией нестандартной занятости. Сделан вывод о том, что современные формы трансформации рынка труда создают для женщин как новые возможности занятости, так и дополнительные социально-экономические нагрузки.

Ключевые слова: трансформация рынка труда, нестандартная занятость, цифровая экономика, достойный труд, гендерное равенство, дистанционная работа, неформальная занятость.

Abstract. This article systematizes the contemporary forms of labor market transformation, including precarious employment, the digital economy, and remote work, based on national and international scholarly sources, and analyzes their gender dimensions. The purpose of the study is to integrate the classification of employment forms presented in K.Kh. Abdurakhmonov's *Labor Economics* textbook with international theoretical approaches, particularly structural transformation theory and the task-based model, in order to establish a comprehensive theoretical framework for gender analysis. The author's approach argues that the classification of employment forms in the national economic literature attains full analytical value only when combined with international gender theories, particularly those developed by Nancy Fraser and Kimberlé Crenshaw. The scientific novelty of the study lies in applying the International Labour Organization's gender indicators within the Decent Work framework (Anker, 2003) together with the typology of precarious employment for the first time. The findings demonstrate that contemporary labor market transformations create both new employment opportunities and additional socio-economic burdens for women.

Keywords: labor market transformation, precarious employment, digital economy, decent work, gender equality, remote work, informal employment.

KIRISH

Hozirgi vaqtda mehnat bozori transformatsiyasining milliy va xalqaro nazariy asoslarini birlashtirish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda, jumladan, O'zbekistonda ish bilan bandlikning an'anaviy shakllaridan beqaror va moslashuvchan shakllarga o'tish jarayoni tezlashmoqda, bu esa milliy iqtisodiy fanda ham, xalqaro adabiyotda ham alohida e'tiborga loyiq. So'nggi yillarda "beqaror bandlik", "raqamli iqtisodiyot" va "munosib mehnat" so'zlarini ilmiy adabiyotlarda tobora ko'proq eshityapmiz va ishlatyapmiz, biroq milliy va xorijiy manbalarni bir tizimda, gender nuqtai nazaridan tahlil qiluvchi ishlar hali kam.

Bugungi kunda ishimiz mavzusining dolzarbligi shundan ham aniqlanadiki, K.X. Abdurahmonovning **«Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot»** darsligida (2019) bandlikning beqaror shakllari (vaqtinchalik, qisman, masofaviy) puxta tasniflangan bo'lsa-da, bu tasnif gender tahlili bilan bevosita bog'lanmagan. Shu bilan bir vaqtda, xalqaro adabiyotda (Fraser, Crenshaw, Crammond va boshq.) gender tenglikning nazariy asoslari chuqur ishlab chiqilgan, biroq ular ko'pincha milliy kontekstdan ajralgan holda qoladi. Shu bois quyidagi savol katta ahamiyat kasb etadi: milliy va xalqaro nazariy yondashuvlarni birlashtirish orqali mehnat bozori transformatsiyasining gender jihatlarini qanday to'liqroq tushuntirish mumkin?

Tadqiqot obyekti — mehnat bozori transformatsiyasining zamonaviy shakllari (beqaror bandlik, raqamli iqtisodiyot, masofaviy ish).

Tadqiqot predmeti — ushbu shakllarning gender jihatlarini va ularni tahlil qiluvchi milliy hamda xalqaro nazariy yondashuvlar o'rtasidagi bog'liqlik.

Tadqiqotning maqsadi — milliy iqtisodiy adabiyot (Abdurahmonov, 2019) va xalqaro nazariy manbalarni birlashtirib, mehnat bozori transformatsiyasining gender jihatlarini tahlil qiluvchi yaxlit nazariy asos yaratish.

Tadqiqot vazifalari:

- Milliy iqtisodiy adabiyotdagi bandlikning beqaror shakllari tasnifini tizimlashtirish;
- Raqamli iqtisodiyot va masofaviy ishning mehnat bozoriga ta'sirini ochib berish;
- XMTning "munosib mehnat" konsepsiyasidagi gender ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- Milliy va xorijiy nazariy yondashuvlarni bir tizimda qiyoslash;
- Ayollar mehnati nuqtai nazaridan amaliy xulosalar shakllantirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiy fanda mehnat bozori transformatsiyasi masalasi K.X. Abdurahmonovning **«Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot»** darsligida keng yoritilgan. Muallif zamonaviy bandlikning "inqilobiy o'zgarishlari"ni tavsiflab, ish bilan bandlik tarkibining o'zgarishi, mehnat va tadbirkorlik munosabatlari muddatining qisqarishi, ish joylarining ish beruvchi nazorati hududlaridan tashqariga chiqishi va yollanma mehnat sohasining qisqarishini asosiy tendensiyalar sifatida ko'rsatadi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining ta'rifiga tayangan holda [A1 2019, 297-bet] muallif beqaror bandlikni muddati bo'yicha chegaralangan, yashirin mehnat munosabatlari va ijtimoiy himoyadan mahrumlik bilan tavsiflaydi hamda uning besh asosiy shaklini (vaqtinchalik, qisman, to'liq band bo'lmaslik, ish joyini taqsimlash, masofaviy ish) ajratadi. Shuningdek, muallif alohida bobda "raqamli iqtisodiyot"ning bandlikka ta'sirini, jumladan, virtual bandlik va masofada turib ishlash konsepsiyasini tahlil qiladi [A1 2019, 511-bet].

Xalqaro adabiyotda mehnat bozori transformatsiyasi tarkibiy transformatsiya nazariyasi (Lewis, 1954; Kuznets, 1966, 1973) va texnologik almashtirish nazariyasi (Autor, Levy, Murnane, 2003; Autor, 2015; Acemoglu, Restrepo, 2018) orqali tushuntiriladi. Bular avval tahlil qilingan. Gender nuqtai nazaridan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti doirasida ishlab chiqilgan "munosib mehnat" (*decent work*) konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega: Richard Anker (Anker, 2003) bu konsepsiya uchun gender tenglik ko'rsatkichlarini — mehnat resurslari tarkibidagi, boshqaruv va muhandis-texnik xodimlar orasidagi ayollar ulushini ishlab chiqdi. Bu ko'rsatkichlar Abdurahmonov darsligida ham keltirilgan, bu esa milliy va xalqaro yondashuvlar orasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rsatadi [A1 2019, 421-bet].

Nensi Freyzer (Fraser, 1994) gender tenglikni ko'p tamoyilli hodisa sifatida ko'rib, "universal parvarishlovchi" modelini taklif qildi. Kimberli Kreshou (Crenshaw, 1989) va Patrisiya Xill Kollinz (Hill Collins, 2001) interseksionallik nazariyasini rivojlantirdi. Bradli Krammond va hammualliflari (Crammond, Maheen, King, 2023) gender tenglik indeksining zamonaviy konseptual asoslarini Pyer Burdye kapitallari nazariyasi asosida qurdi.

Yuqorida ko'rsatilgan ishlardan farqli o'laroq, mazkur maqolada milliy iqtisodiy adabiyotdagi (K.X. Abdurahmonov, 2019) bandlik shakllari tasnifi va XMTning gender ko'rsatkichlari (Anker, 2003) birinchi marta xalqaro nazariy yondashuvlar (Fraser, Crenshaw, Crammond va boshq.) bilan yagona tizimda tahlil qilinadi. Bu tadqiqotning ilmiy yangiligini tashkil etadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada kontent-tahlil usuli qo'llanildi: K.X. Abdurahmonovning **“Mehnat iqtisodiyoti”** darsligidan bandlik shakllari tasnifi va gender ko'rsatkichlari ajratib olindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida milliy manbadagi tasnif xalqaro nazariy yondashuvlar (tarkibiy transformatsiya, vazifaga asoslangan model, ko'p tamoyilli gender nazariyasi) bilan solishtirildi. Nazariy-konseptual tahlil usuli orqali har bir bandlik shaklining gender jihatdan ahamiyati baholandi. Tizimli yondashuv yordamida milliy va xorijiy manbalar yagona tahliliy tizimga birlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bandlikning beqaror shakllari va ularning gender jihatlari. 1-jadvalda Abdurahmonov (2019) darsligida keltirilgan bandlik shakllari tasnifi ularning gender ahamiyati bilan birga taqdim etilgan. Muallif ta'kidlaganidek, bandlikning beqaror shakllari “faqat iqtisodiy emas, shuningdek, ijtimoiy vazifalarni ham hal etuvchi vosita sifatida” qaralishi mumkin, xususan, qisman va masofaviy ish ayollarga uy-parvarish vazifalarini kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval.

Bandlikning beqaror shakllari va ularning gender ahamiyati

Shakli	Mazmuni	Ayollarga tegishli xususiyati
Vaqtinchalik bandlik	Pudrat, mavsumiy ish, muayyan ishni bajarish kontrakti	Qishloq xo'jaligi, savdoda ayollar ustunligi
Qisman bandlik	To'liq bo'lmagan ish kuni/haftasi/oyi	Uy-parvarish bilan uyg'unlashtirish imkoni
Ish vaqti bo'yicha to'liq band bo'lmalik	Xodim salohiyatidan to'liq foydalanilmasligi	Ko'pincha majburiy, yashirin ishsizlik shakli
Ish joyini taqsimlash	Bir lavozimni 2+ xodim bo'lishishi	Moslashuvchan jadval imkoniyati
Masofada turib ishlash (telework)	Ish beruvchidan masofada, raqamli vositalar orqali	Raqamli iqtisodiyot sharoitida eng tez o'suvchi shakl

Beqaror bandlikning ikkilanma tabiati. Shu bilan birga, Abdurahmonov to'g'ri ta'kidlaganidek, bandlikning beqaror shakllari xodimlarni mehnatni muhofaza qilish, ish haqi, sug'urta to'lovlari va boshqa ijtimoiy kafolatlardan mahrum qilishi, shuningdek, kasaba uyushmalari rolining zaiflashuviga olib kelishi mumkin. Bu Nensi Freyzer (Fraser, 1994) nazariyasi bilan bevosita bog'liq: agar ayollar aynan beqaror shakllarda to'planib qolsa (masalan, qisman bandlik orqali uy-parvarish yukini yolg'iz ko'tarish), bu “antimarginalizatsiya” tamoyiliga zid keladi: ayollar rasman bandlikka jalb etilgan bo'lsa-da, ular ijtimoiy himoya va martaba imkoniyatlaridan chetlashtirilgan bo'lib qoladi.

Munosib mehnat konsepsiyasidagi gender ko'rsatkichlari. Xalqaro Mehnat Tashkiloti doirasida ishlab chiqilgan (Anker, 2003) va Abdurahmonov darsligida keltirilgan gender ko'rsatkichlari 2-jadvalda taqdim etilgan. Bu ko'rsatkichlar Krammond va hammualliflari (Crammond, Maheen, King, 2023) taklif etgan konseptual asosga mos keladi: ular ham shunga o'xshash ko'rsatkichlar (boshqaruvdagi ayollar ulushi) orqali gender tenglikni o'lchashni taklif qiladi, biroq Krammond va boshq. bunga qo'shimcha ravishda dam olish vaqti va parvarishlash yukini ham kiritadi. Bu esa milliy ko'rsatkichlar tizimini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

2-jadval.

XMTning “munosib mehnat” kontsepsiyasidagi gender ko'rsatkichlari

Gender tenglik ko'rsatkichi	Tavsifi
Mehnat resurslari tarkibidagi ayollar salmog'i	Umumiy ishchi kuchidagi ulush
Ma'muriy-boshqaruv xodimlar tarkibidagi ayollar salmog'i	Vertikal segregatsiya darajasi
Muhandis-texnik xodimlar tarkibidagi ayollar salmog'i	Gorizontal (kasbiy) segregatsiya darajasi
Ishsiz ayollar va erkaklar miqdori nisbati	Ishsizlikning gender assimetriyasi

Manba: Anker (2003) asosida Abdurahmonov (2019, 421-bet) da keltirilgan.

Raqamli iqtisodiyot va masofaviy ishning gender salohiyati.

K.X. Abdurahmonov raqamli iqtisodiyotning ish bilan virtual bandlikni ta'minlash imkoniyatini alohida ta'kidlaydi [A1: 511-bet]. Bu xalqaro adabiyotda Autor (2015) tasvirlagan "vazifaga asoslangan" o'zgarishning milliy ko'rinishi: masofaviy ish, agar tegishli infratuzilma va ko'nikmalar mavjud bo'lsa, ayollar uchun institutsional to'siqlarni (transport, jismoniy mavjudlik talabi) chetlab o'tishning amaliy yo'li bo'lishi mumkin. Biroq bu salohiyat, xuddi tadbirkorlik misolida ko'rilganidek, avtomatik ravishda ro'yobga chiqmaydi — u raqamli ko'nikmalar va infratuzilmaga bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiy adabiyotdagi bandlik shakllari tasnifi xalqaro gender nazariyasi bilan birlashtirilganda ancha boy tahliliy natija beradi. Ushbu xulosalar asosida quyidagi takliflar shakllantirildi:

- Milliy statistika tizimida bandlikning beqaror shakllari bo'yicha gender kesimida ajratilgan ma'lumotlar yig'ishni joriy etish;
- Qisman va masofaviy bandlikni rag'batlantirishda ayollarni ijtimoiy himoya va martaba imkoniyatlaridan mahrum qilmaydigan mexanizmlarni ishlab chiqish;
- XMTning munosib mehnat gender ko'rsatkichlarini (Anker, 2003) Krammond va boshq. (2023) taklif etgan kengaytirilgan ko'rsatkichlar (dam olish vaqti, parvarish yuki) bilan to'ldirish;
- Raqamli ko'nikmalar va infratuzilmaga investitsiyalarni ayollar uchun maxsus yo'naltirish — bu masofaviy ishning gender salohiyatini ro'yobga chiqarish sharti;
- Kasaba uyushmalari va fuqarolik jamiyati institutlarining beqaror bandlikdagi ayol-larni himoya qilish borasidagi rolini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, milliy va xalqaro nazariy manbalarni birlashtirish mehnat bozori transformatsiyasining gender jihatlarini tushunish uchun zarur. Bu yondashuv keyingi tadqiqot boblarida Xitoy va O'zbekiston empirik tahlili uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. K.X. Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot: darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi. Toshkent, 2019. 544 b.
2. R. Anker. Dostoiny trud: ponyatiya i pokazateli // Mezhdunarodniy obzor truda. T. 142, № 1–2, 2003. – M., 2004. – S. 3–38.
3. Autor, D.H., Levy, F., Murnane, R.J. (2003). The Skill Content of Recent Technological Change. Quarterly Journal of Economics, 118(4).
4. Autor, D.H. (2015). Why Are There Still So Many Jobs? Journal of Economic Perspectives, 29(3), 3–30.
5. Acemoglu, D., Restrepo, P. (2018). The Race between Man and Machine. American Economic Review, 108(6).
6. Fraser, N. (1994). After the Family Wage: Gender Equity and the Welfare State. Political Theory, 22(4).
7. Crenshaw, K. (1989). Demarginalizing the Intersection of Race and Sex. University of Chicago Legal Forum.
8. Hill Collins, P. (2001). Black Feminist Thought. Routledge.
9. Crammond, B.R., Maheen, H., King, T. (2023). Conceptual Foundations of a Gender Equality Index. Health Promotion International, 38(3), daad063.
10. International Labour Organisation (ILO). (2021). Statistical Data on Female Labour Force Participation. Geneva: ILO.
11. Chen, M. (WIEGO). Women in Informal Employment: Globalizing and Organizing. Cambridge, MA: WIEGO.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100